



OLIV TA‘LIM JARAYONIDA TALABALARNING METAKOGNITIV REFLEKSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Sabirova Nargiza Yusupboyevna

*O‘zMPU huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi
katta ilmiy hodimi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta‘lim jarayonida talabalarning metakognitiv refleksiyasini rivojlantiruvchi asosiy omillar nazariy-tahliliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Metakognitiv refleksiya — shaxsning o‘z bilish faoliyati, fikrlash strategiyalari va o‘quv natijalari ustidan ongli nazorat o‘rnatish qobiliyati bo‘lib, u zamonaviy oliy ta‘lim sifatini oshirishning muhim psixologik-pedagogik resursi hisoblanadi. Tadqiqotda J.Flavellning metakognitiv monitoring modeli, B.Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqargan ta‘lim nazariyasi, D.Shyonning refleksiv amaliyotchi kontseptsiyasi va zamonaviy empirik tadqiqotlar tahlil qilingan asosida talabalar refleksiyasini shakllantiruvchi shaxsiy (o‘z-o‘zini nazorat qilish, emotsional regulatsiya), pedagogik-metodik (o‘qitish strategiyalari, refleksiv topshiriqlar) va institutsional-texnologik (raqamli muhit, ta‘lim siyosati) omillar guruhlariga ajratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv bilim va emotsional regulatsiyaning o‘zaro ta‘siri talabalar refleksiyasining rivojlanish darajasini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: metakognitiv refleksiya, o‘z-o‘zini boshqargan ta‘lim, metakognitiv monitoring, refleksiv amaliyot, emotsional regulatsiya, oliy ta‘lim sifati, talaba shaxsi.

Аннотация. В статье на теоретико-аналитическом уровне рассматриваются ключевые факторы развития метакогнитивной рефлексии студентов в процессе высшего образования. Метакогнитивная рефлексия определяется как способность личности осознанно контролировать собственную познавательную деятельность, стратегии мышления и учебные результаты. На основе анализа модели метакогнитивного мониторинга Дж.Флейвелла, теории саморегулируемого обучения Б.Циммермана, концепции рефлексии практика Д.Шёна и современных эмпирических исследований выделены три группы факторов: личностные (самоконтроль, эмоциональная регуляция), педагогико-методические (стратегии обучения, рефлексивные задания) и институционально-технологические (цифровая среда, образовательная политика). Результаты показывают, что взаимодействие метакогнитивных знаний и эмоциональной регуляции выступает решающим фактором, определяющим уровень развития рефлексии студентов.

Ключевые слова: метакогнитивная рефлексия, саморегулируемое обучение, метакогнитивный мониторинг, рефлексивная практика, эмоциональная регуляция, качество высшего образования, личность студента.

Abstract. This article provides a theoretical-analytical review of the key factors that foster the development of students’ metacognitive reflection in the higher education process. Metacognitive reflection is defined as an individual’s capacity to consciously monitor their own cognitive activity, thinking strategies, and learning outcomes. Drawing on Flavell’s model of metacognitive monitoring, Zimmerman’s theory of self-regulated learning, Schön’s concept of the reflective practitioner, and recent empirical studies, the factors shaping student reflection are grouped into personal (self-control, emotional regulation), pedagogical-methodological (teaching strategies, reflective tasks), and institutional-technological (digital environment, education policy) categories. The findings indicate that the interaction between metacognitive knowledge and emotional regulation is the decisive factor determining the level of students’ reflective development.

Keywords: metacognitive reflection, self-regulated learning, metacognitive monitoring, reflective practice, emotional regulation, quality of higher education, student personality.

KIRISH. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabani nafaqat tayyor bilimlar egasi, balki o‘z bilish jarayonini mustaqil boshqara oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorida oliy ta’lim mazmunini tubdan yangilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlarni joriy etish va yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislar tayyorlash zarurligi alohida ta’kidlangan [7].

Talabaning o‘z bilish faoliyatini ongli boshqarish qobiliyati fanda “metakognitiv refleksiya” tushunchasi bilan ifodalanadi. J.Flavell metakognitsiyani birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritib, uni metakognitiv bilim, metakognitiv kechinmalar, maqsad (vazifa) va strategiya (harakat) kabi to‘rt tarkibiy qismning o‘zaro ta’siridan iborat dinamik nazorat tizimi sifatida ta’riflagan edi [2, 906-b.]. Shu bilan birga, refleksiya tushunchasining nazariy negizini J.Dyui o‘zining klassik asarida yaratgan bo‘lib, u refleksiv fikrlashni g‘oyaning har qanday jihati shubha ostiga olinadigan, izchil va faol fikrlash jarayoni sifatida tavsiflaydi; olim ta’kidlaganidek, “tafakkur o‘rganilmagan hududni ongsiz odatga aylanib qolgan narsani qayta ko‘rib chiqishdan ko‘ra osonroq bosib o‘tadi” [1, 121-b.].

Muammoning dolzarbligi shundaki, raqamli ta’lim muhitining kengayishi, axborot yukining ortishi va o‘quv motivatsiyasining o‘zgaruvchanligi sharoitida talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiv fikrlash ko‘nikmalari nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki hayot bo‘yi o‘rganish (lifelong learning) qobiliyatini shakllantirishning ham asosiy sharti bo‘lib qolmoqda [6, 149–152-b.]. Shu bois talabalarda metakognitiv refleksiyani rivojlantiruvchi omillarni ilmiy jihatdan tizimlashtirish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash dolzarb pedagogik-psixologik vazifaga aylanadi.

Tadqiqotning maqsadi — oliy ta’lim jarayonida talabalarning metakognitiv refleksiya-rivoylantiruvchi shaxsiy, pedagogik-metodik va institutsional-texnologik omillarni nazariy tahlil asosida aniqlash va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmini yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, uning uchun metakognitsiya, refleksiya va o‘z-o‘zini boshqargan ta’lim nazariyalariga bag‘ishlangan klassik va zamonaviy ilmiy manbalar, jumladan J. Dyuning reflektiv fikrlash kontseptsiyasi [1], J.Flavellning metakognitiv monitoring modeli [2], D.Shyonning refleksiyaning amaliyotdagi (reflection-in-action) nazariyasi [3], B.Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqargan ta’lim modeli [4], shuningdek 2023–2026-yillarda chop etilgan empirik tadqiqotlar [5; 6] tahlil obyekti sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1) mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish va umumlashtirish metodi; 2) qiyosiy-tarixiy metod — metakognitsiya va refleksiya nazariyalarining evolyutsiyasini (Dyuidan tortib zamonaviy strukturaviy tenglamalar modellashtirishigacha) izchil ko‘rib chiqish uchun; 3) kontent-tahlil metodi — tanlangan manbalardagi omillarni guruhlash va tasniflash uchun; 4) sintez metodi — aniqlangan omillar asosida yaxlit nazariy modelni shakllantirish uchun. Manbalar tanlovida asosiy mezon sifatida nashrning ilmiy-nazariy asoslanganligi, empirik tekshirilganligi va mavzuga bevosita mos kelishi inobatga olindi.

NATIJALAR. O‘tkazilgan tahlil natijasida talabalarning metakognitiv refleksiya-rivoylantiruvchi omillar shartli ravishda uchta asosiy guruhga birlashtirildi: shaxsiy-psixologik, pedagogik-metodik va institutsional-texnologik omillar.

1. Shaxsiy-psixologik omillar

Birinchi guruhga talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish (self-control), metakognitiv bilim va emotsional regulatsiya darajasi kiradi. J.Merkebu, A.Kitsantas, S.Durning va T.Ma tomonidan 493 nafar bakalavriat talabasi ishtirokida o‘tkazilgan struktura tenglamalari modellashtirish (SEM) tadqiqotida metakognitsiya va emotsional regulatsiyaning o‘zaro ta’siri refleksiya darajasidagi o‘zgaruvchanlikning 52 foizini izohlashi aniqlangan; bunda emotsional regulatsiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda metakognitsiya bilan refleksiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa kuchli namoyon bo‘lgan [5]. Shunga o‘xshash tarzda, H.Hidayat va hammualliflarining 597 nafar muhandislik yo‘nalishi talabalari ishtirokidagi tadqiqotida o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasi talabalarning axborot yukini boshqarish, raqamli savodxonlik va shaxsiylashtirilgan o‘qish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, bu esa o‘z navbatida metakognitiv anglashning ortishiga olib kelishi statistik jihatdan tasdiqlangan [6, 170–172-b.].

2. Pedagogik-metodik omillar

Ikkinchi guruh omillar o‘qitish jarayonining tashkil etilishi bilan bog‘liq. B. Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqargan ta’lim modeliga ko‘ra, o‘quv faoliyati oldindan mo‘ljallash (forethought), ijro etish (performance) va o‘z-o‘zini baholash (self-reflection) bosqichlaridan iborat siklik jarayon bo‘lib, har bir bosqichda maqsad qo‘yish, strategik rejalashtirish va o‘z-o‘zini baholash amallari talabaning keyingi o‘quv strategiyalarini

shakllantiradi [4, 65–66-b.]. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan refleksiv topshiriqlar — o‘quv kundaligi yuritish, guruhli muhokama, portfolio va “metakognitiv savollar” texnikasi kabi usullar talabalarni o‘z fikrlash jarayonini kuzatishga undaydi. D.Shyonning ta’kidlashicha, malakali amaliyotchilar o‘z bilimlarining katta qismini so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan “amaldagi bilim” (tacit knowing) shaklida egallaydilar, biroq ular ana shu intuitiv bilimlari ustidan ham vaziyat davomida (reflection-in-action), ham vaziyatdan keyin (reflection-on-action) refleksiya yuritish qobiliyatiga ega bo‘ladilar; bu qobiliyat maqsadli pedagogik ta’sir orqali rivojlantirilishi mumkin [3, 8–9-b.].

3. Institutsional-texnologik omillar

Uchinchi guruhga oliy ta’lim muassasasining ta’lim siyosati, raqamli ta’lim muhiti va axborot resurslaridan foydalanish madaniyati kiradi. Hidayat va hammualliflarining tadqiqotida raqamli savodxonlik va axborot yuki kabi omillar talabalarning mazmunli o‘rganish (meaningful learning) va metakognitiv anglash ko‘rsatkichlari bilan statistik jihatdan bog‘liqligi aniqlangan, biroq smartfondan foydalanish odatining o‘zi metakognitiv anglashga bevosita sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi, balki bu ta’sir o‘z-o‘zini nazorat qilish va raqamli savodxonlik orqali vositalanishi ko‘rsatilgan [6, 158–174-b.]. Bu O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalarini joriy etishda nafaqat texnik infratuzilmaga, balki talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish va axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi, bu esa PQ-2909-son qarorida belgilangan ta’lim sifatini tubdan yaxshilash vazifasiga hamohangdir [7].

1-jadval. Talabalar metakognitiv refleksiyasini rivojlantiruvchi omillar tasnifi

Omillar guruhi	Mazmuni	Manba
Shaxsiy-psixologik	O‘z-o‘zini nazorat qilish, metakognitiv bilim, emotsional regulatsiya	[5]; [6, 170–172-b.]
Pedagogik-metodik	O‘z-o‘zini boshqargan ta’lim strategiyalari, refleksiv topshiriqlar, reflection-in-action	[3, 8–9-b.]; [4, 64–70-b.]
Institutsional-texnologik	Raqamli ta’lim muhiti, axborot yuki, ta’lim siyosati	[6, 158–174-b.]; [7]
Kognitiv-falsafiy asos	Refleksiv fikrlashning tizimli, izchil xarakteri	[1, 121-b.]; [2, 906-b.]

MUHOKAMA. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning metakognitiv refleksiyasi bitta izolyatsiyalangan omil emas, balki shaxsiy, pedagogik va institutsional darajalarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Flavellning to‘rt komponentli modeli [2, 906-b.] va Zimmermanning uch bosqichli sikli [4, 64–70-b.] bir-birini to‘ldiradi: agar Flavell metakognitiv jarayonning ichki tarkibini (bilim, kechinma, maqsad, strategiya) tavsiflasa, Zimmerman bu jarayonning vaqt bo‘yicha (o‘quv faoliyatidan oldin, davomida va keyin) qanday tsiklik tarzda amalga oshishini ko‘rsatadi.

Ayniqsa e‘tiborga molik xulosa — Merkebu va hammualliflarining tadqiqotida aniqlangan metakognitsiya bilan emotsional regulyatsiyaning o‘zaro ta’sir effekti bo‘lib, bunga ko‘ra sof kognitiv (bilim va strategiyaga oid) omillargina emas, balki talabaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish qobiliyati ham refleksiya sifatini belgilovchi teng darajadagi omil ekanligini ko‘rsatadi [5]. Bu topilma an’anaviy oliy ta’lim amaliyotida ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladigan emotsional-intellektual tarkibiy qismni o‘quv jarayoniga maqsadli kiritish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, Dyuning reflektiv fikrlash “ongsiz odatni qayta ko‘rib chiqish” jarayoni ekanligi haqidagi klassik g‘oyasi [1, 121-b.] va Shyonning “amaldagi bilim” kontseptsiyasi [3, 8–9-b.] o‘zaro uyg‘unlashib, quyidagi amaliy xulosani beradi: talabalarda metakognitiv refleksiyaning rivojlantirish uchun faqat nazariy bilim berish yetarli emas, balki ularga o‘z tajribasi va xatolari ustida ochiq, tanqidiy va tizimli fikrlash imkoniyatini beruvchi maxsus pedagogik vaziyatlar (amaliy loyihalar, reflektiv kundaliklar, guruhli tahlil) yaratish zarur. Hidayat va hammualliflarining natijalari [6] bu jarayonga zamonaviy raqamli omillarning (axborot yuki, raqamli savodxonlik) ham kirib kelganini, ya’ni metakognitiv refleksiya modelining XXI asr sharoitida yangi o‘zgaruvchilar bilan boyitilishi lozimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston oliy ta’limi kontekstida bu natijalar PQ-2909-son qarorida belgilangan kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish vazifasi [7] bilan uzviy bog‘liq holda talqin etilishi lozim: metakognitiv refleksiyaning rivojlantiruvchi omillarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlari va pedagogik texnologiyalarni yangilash oliy ta’lim samaradorligini oshirishning muhim ichki resursi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

— Talabalarining metakognitiv refleksiya shaxsiy-psixologik (o‘z-o‘zini nazorat qilish, emotsional regulyatsiya), pedagogik-metodik (reflektiv topshiriqlar, o‘z-o‘zini boshqargan ta’lim strategiyalari) va institutsional-texnologik (raqamli muhit, ta’lim siyosati) omillarning kompleks o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadi.

— Metakognitiv bilim va emotsional regulyatsiyaning birgalikdagi ta’siri refleksiya darajasidagi o‘zgaruvchanlikning yarmidan ortig‘ini (52 foizgacha) izohlaydi, bu esa ta’lim amaliyotida emotsional-intellektual komponentga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi [5].

— Oliy ta’lim muassasalarida reflektiv o‘quv kundaliklari, portfolio, guruhli metakognitiv muhokamalar kabi metodlarni tizimli joriy etish talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

— Raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish jarayonida talabalarining axborot yuki bilan ishlash va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilishi metakognitiv anglashning o‘rishiga bevosita hissa qo‘shadi [6].

— Aniqlangan omillar majmuasini hisobga olgan holda oliy ta’lim dasturlarini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarorida belgilangan yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi kadrlar tayyorlash vazifasini amalga oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi [7].

Kelgusi tadqiqotlarda aniqlangan nazariy modelni O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirokida empirik tekshirishdan o‘tkazish, shuningdek turli yo‘nalish (gumanitar, texnik, tabiiy-ilmiy) talabalari o‘rtasida metakognitiv refleksiya darajasini qiyosiy o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. — Boston, MA: D.C. Heath, 1933. — 301 p.
2. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, No. 10. — P. 906–911.
3. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.
4. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.
5. Merkebu J., Kitsantas A., Durning S.J., Ma T. What is metacognitive reflection? The moderating role of metacognition on emotional regulation and reflection // Frontiers in Education. — 2023. — Vol. 8. — Art. 1166195.
6. Hidayat H., Harmanto D., Mohd Isa M.R., Tanucan J.C.M., Ahlunnazak A.I., Ifdil I., Ardi Z. Importance of metacognitive awareness in learning and instruction for engineering students’ education // Journal of Social Studies Education Research. — 2024. — Vol. 15, No. 1. — P. 149–186.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. — 2017.